

tajribalarini joriy etish orqali investorlar ishonchi oshiriladi. Bu choralar moliya tizimini mustahkamlash va bozor barqarorligini ta'minlashda samarali yo'li hisoblanadi.

O'zbekiston moliya bozori barqarorligini oshirish institutsional investorlarning faoliyatini kuchaytirish bilan chambarchas bog'liq. Investorlarning uzoq muddatli sarmoya kiritishi, bozor risklarini kamaytirishi va korporativ boshqaruvni yaxshilashi orqali moliya tizimi mustahkamlanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, regulyativ soddalashtirish, soliqlarda rag'batlar va rivojlangan davlatlar tajribasini joriy etish investor ishonchini oshirishning samarali yo'llari hisoblanadi. Natijada, moliya bozori barqaror va jozibali bo'lib, mamlakatimiz iqtisodiyoti uzoq muddatli rivojlanishga erishadi. Bundan tashqari, institutsional investorlar moliya bozorida likvidlik darajasini oshirishga ham muhim hissa qo'shadi. Ularning faol ishtiroki qimmatli qog'ozlar bozorining yanada rivojlanishiga va investitsiya imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, investorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali moliyaviy infratuzilmani takomillashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada moliya bozori yanada barqaror, ochiq va samarali tizimga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fabozzi, F.J., Modigliani, F. (2019). *Foundations of Financial Markets and Institutions*. Pearson.
2. Mishkin, F.S., Eakins, S.G. (2018). *Financial Markets and Institutions*. Pearson.
3. Bodie, Z., Kane, A., Marcus, A.J. (2020). *Investments*. McGraw-Hill Education.
4. Gârleanu, N., Pedersen, L.H. (2018). *Institutional Investors and Market Stability*. *Journal of Financial Economics*, 127(1), 1–25.
5. World Bank (2022). *Financial Sector Assessment: Uzbekistan*. Washington, D.C.
6. International Monetary Fund (IMF) (2021). *Uzbekistan: Financial Sector Stability Review*. IMF Country Report.

AKSIYADORLIK JAMIYATLARI INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR ASOSIDA MOLIVALASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Achilov Dilshod Marufovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslubiyotini rivojlantirishning joriy bosqichlarida moliyaviy-investitsion strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga samarali tadbiq etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarining istiqbolda moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlanishi mukammal ishlab chiqilgan strategiyalarga ko'p jihatdan bog'liq hisoblanadi. Shu bilan birga sohani yanada rivojlantirishda institutsional-tashkiliy asoslar ham alohida ahamiyatga ega bo'lib keyingi yillarda bu borada ham qator ijobiy natijalarga erishilmoqda. Jahon kapital bozorining globallashtirish sharoitida iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan innovatsion faoliyatga bog'liqdir. Innovatsiyalar yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardosh mahsulotlar yaratishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun, aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Innovatsion loyihalarni amalga oshirish odatda yirik miqdordagi moliyaviy resurslarni talab qilish bilan birga ulardan samarali foydalanish masalasi ham

dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jihat aksiyadorlik jamiyatlari uchun innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning samarali mexanizmini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Zamonaviy moliya tizimida turli xil moliyaviy instrumentlar – aksiyalar, obligatsiyalar, investitsiya fondlari, venchur kapital va boshqa moliyaviy vositalar innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda ham aksiyadorlik jamiyatlarini modernizatsiya qilish, ularning innovatsion salohiyatini oshirish va investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda, xalqaro amaliyot tajribalarida kompaniyalar innovatsion faoliyatini moliyalashtirishda bir qator moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanib kelinmoqda. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda moliyaviy instrumentlarning ahamiyati yuqori bo‘lib, buni quyidagilar bilan izohlash mumkin.

Birinchiidan, aksiyalar emissiyasi orqali kapital jalb qilish hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlari qo‘shimcha aksiyalar chiqarish orqali investorlar mablag‘larini jalb etadi va ushbu mablag‘lar innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi. Ikkinchiidan, korporativ obligatsiyalar chiqarish orqali uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyati mavjud. Obligatsiyalar aksiyadorlik jamiyatlariga innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun qo‘shimcha manba yaratadi. Uchinchiidan, venchur kapital va xususiy investitsiya fondlari innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu turdagi investitsiyalar yuqori riskli, lekin katta daromad keltirishi mumkin bo‘lgan innovatsion loyihalarga yo‘naltiriladi. To‘rtinchiidan, bank kreditlari va investitsion kreditlar ham innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning muhim manbalaridan biridir. Biroq kreditlar ko‘pincha yuqori foiz stavkalari va ta‘minot talab qilishi sababli innovatsion loyihalar uchun har doim ham qulay bo‘lavermaydi.

O‘zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar aksiyadorlik jamiyatlari uchun yangi moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bizningcha, aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion faoliyatini moliyaviy instrumentlar orqali moliyalashtirishni rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Birinchiidan, kapital bozorini rivojlantirish orqali aksiyalar va obligatsiyalar bozorining likvidligini oshirish zarur. Bu aksiyadorlik jamiyatlariga innovatsion loyihalar uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini beradi. Ikkinchiidan, venchur moliyalashtirish tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Innovatsion startaplar va yangi texnologiyalarni joriy etuvchi korxonalarini qo‘llab-quvvatlash uchun venchur fondlar faoliyatini kengaytirish lozim. Uchinchiidan, aksiyadorlik jamiyatlari uchun innovatsion obligatsiyalar va yashil obligatsiyalar kabi yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. To‘rtinchiidan, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat tomonidan kafolatlar va soliq imtiyozlari berish orqali investorlar uchun qulay sharoit yaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Beshinchiidan, moliya bozori infratuzilmasini takomillashtirish, investitsiya fondlari faoliyatini kengaytirish hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion faoliyatini rivojlantirish iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omillaridan biridir. Innovatsion loyihalarni moliyaviy instrumentlar asosida moliyalashtirish esa ushbu jarayonning samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion faoliyatini moliyalashtirishda aksiyalar emissiyasi, obligatsiyalar, venchur

kapital va investitsiya fondlari muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, kapital bozorini rivojlantirish, yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va investorlar uchun qulay sharoit yaratish innovatsion faoliyatni moliyalashtirish istiqbollarini kengaytiradi. Kelgusida aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion faoliyatini moliyaviy instrumentlar asosida moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga va innovatsion salohiyatning oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Abdullayeva Sh.Z. Innovatsion iqtisodiyot. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.*
2. *Abdullayeva M.Q. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini rivojlantirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023.*
3. *Tidd J., Bessant J. Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change. Darslik. – London: Wiley, 2021.*
4. *Schilling M.A. Strategic Management of Technological Innovation. Darslik. – New York: McGraw-Hill Education, 2022.*
5. *Hoshimov U.A. O'zbekistonda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024.*

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR KAPITAL BOZORINING INSTITUSIONAL XUSUSIYATLARI

Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich

TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasi professori, i.f.d.

Bektemirov Sardor Xusan o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hodimi

Rivojlanayotgan davlatlarda kapital bozorining shakllanishi va rivojlanishi asosan milliy iqtisodiyotlarning tuzilmasi, moliya tizimining institusional rivojlanish bosqichlari hamda biznesni yuritish muhiti bilan chambarchas bog'liqdir. Aksariyat ilmiy adabiyotlarda kapital bozorining rivojlanish modellari odatda banklarga asoslangan (bank-based) va bozorga asoslangan (market-based) tizimlarga ajratiladi. Rivojlanayotgan Osiyo va MDH mamlakatlari esa ushbu ikki modelning o'ziga xos gibridd shaklini namoyon etmoqda desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Mazkur mamlakatlarda bank kreditlari ko'p yillik tarihgga ega bo'lib, yuqori ahamiyatga ega moliyalashtirish manbai sifatida shakllanganligini alohida qayd etish mumkin. Albatta ta'kidlash zarurki, so'nggi yigirma-o'ttiz yillik tendensiyalarni kuzatar ekanmiz mazkur mintaqalarda aksiyalar bozori, obligatsiyalar bozori hamda muqobil moliyalashtirish instrumentlarining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Ayniqsa Osiyo mintaqasidagi rivojlangan davlatlarda kapital bozorlarini transformatsiya qilish davlatlar iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi.

Jahon banki hamda Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) tadqiqotlariga ko'ra, 2000-2024 yillar davomida past va o'rta daromadli mamlakatlarda korxonalarining qimmatli qog'ozlar (aksiyalar va obligatsiyalar) chiqarishi yalpi ichki mahsulotga nisbatan qariyb ikki barobar oshgan. Ushbu davrda rivojlanayotgan davlatlarda kapital bozoriga ilk dastlabki chiqayotgan kompaniyalar soni 300% ga ko'paygani kuzatilgan